

“Mifologizm va badiiy mahorat” nomli monografiya nashr etildi

Filologiya fanlari doktori Manzura Otajanovaning “Mifologizm va badiiy mahorat” nomli monografiyasi nashr etildi.



Mazkur monografiyada neomifologizmlarning poetik tafakkur yangilanishiga asos beruvchi muhim estetik vositalar sifatida qo'llanilishida mushtarak hisoblangan universal mifologemalarni qo'llash hamda arxaik mifologiyaga oid syujet, obraz va metaforik atributlar asosida “mifosxema”ni yaratish usuli badiiy-estetik

tafakkur taraqqiyoti uchun asos-mohiyat kasb etishi; o'zbek romanlarining badiiy konteksti va syujet-kompozitsion qurilishida muhim semantik funktsiya bajaruvchi mifologizmlar arxaik ishonch-e'tiqodlarga aloqador mifologik arxetiplier diffuziyasi, mifologik syujet va motivlar stilizatsiyasi, jahon xalqlari mifologiyasi elementlarining transformatsiyasi kabi tiplardan iboratligi ochib berilgan.